

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.PED.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA NAZOKAT ISAYEVNA

**KOMPYUTER INJINIRINGI YO‘NALISHIDAGI BAKALAVRLARNI
TAYYORLASHDA “DISKRET TUZILMALAR” KURSINI O‘QITISH
METODIKASINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Abdullayeva Nazokat Isayevna

Компьютер injiniringi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda
"Diskret tuzilmalar" kursini o'qitish metodikasini innovatsion texnologiyalar
asosida takomillashtirish.....3

Абдуллаева Назокат Исаевна

Совершенствование методики преподавания курса "Дискретные структуры"
при подготовке бакалавров по направлению Компьютерный инжиниринг
на основе инновационных технологий.....21

Abdullaeva Nazokat Isaevna

Improving the methodology of teaching the course "Discrete Structures" in the
preparation of bachelors in the direction of Computer Engineering based on
innovative technologies.....41

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works.....46

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.PED.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA NAZOKAT ISAYEVNA

**KOMPYUTER INJINIRINGI YO‘NALISHIDAGI BAKALAVRLARNI
TAYYORLASHDA “DISKRET TUZILMALAR” KURSINI O‘QITISH
METODIKASINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Ped939 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspi.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aripov Mersaid

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedjanov Dilmurod G‘ulomovich

texnika fanlari doktori, dotsent

Lutfullayev Maxmud Xasanovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. (Tel.(+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: tvchdpi@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy (Tel.(+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: tvchdpi@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “_____” _____ kuni tarqatildi

(2023-yil “_____” _____ da _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

J.E.Usarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

D.M.Maxmudova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

R.A.Eshchanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sifatli bilim berish va takomillashgan o'qitish usullari tadbiriq etishga ahamiyat qaratilmoqda. YUNESKONing ko'p tarmoqli koalitsiyasida "aniq fanlarni o'qitishda ta'lim bosqichlari orasidagi uzluksizlik va uzviylikni ta'limdagi yangi tendensiyalarga (ta'limning axborotlashuvi, innovatsion texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) mos ta'minlash, zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, yuqori darajali axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirish" masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dunyoda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ularning didaktik asoslarini o'rganib, innovatsion usullarini ishlab chiqish texnologiyasi va metodologik asoslarini takomillashtirish, talabalardagi ijodiy qobiliyatini, kreativ va kognitiv fikrlashini oshirish, tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini modellashtirish yuzasidan Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya, Kanada, Koreya va Rossiya kabi davlatlarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa, oliy ta'lim muassasalari kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan Diskret tuzilmalar kursini uzviylikda o'qitish metodikasi ta'lim mazmunini tanlash, innovatsion va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish yordamida takomillashtirish va amaliyotga joriy etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor qaratilib, buni amalga oshirishda normativ-huquqiy va moddiy-texnik bazasi yangilandi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash" yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishning ustuvor vazifasi etib belgilangan. Bu vazifalardan bo'lajak kadrlar tayyorlash jarayonini raqamli ta'lim tizimida tashkil etish, kompyuter injiniringi yo'nalishida o'qitiladigan Diskret tuzilmalar kursini innovatsion texnologiyalarga asoslangan interfaol elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va undan foydalanish orqali kasbiy yetuk mutaxassislar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 sonli, 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079 sonli farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851 son Qarori hamda mazkur

sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kompyuter injiniringi mutaxassislarini professional faoliyatga tayyorlash, ularda zaruriy kasbiy sifatlar va ko'nikmalarni shakllantirish masalalari hamda diskret tuzilmalar kursini mazmuni, tarkibi va uzviyligini ta'minlash bo'yicha respublikamiz olimlaridan X.To'rayev, E.Urunbayev, S.Sadaddinova, Y.Abduraxmanova, F.Raximovlar diskret tuzilmalar kursini mazmuni, tarkibi va uzviyligini ta'minlash, shuningdek, o'qitish samaradorligini oshirishni nazariy asoslash va uslubiy ta'minlash masalalari O.Allamov, N.Kasimov, R.Dadajanov, F.Ibragimovlarning izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Ta'limda AKTni joriy etish va uning samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari va ta'limni raqamlashtirish bo'yicha respublikamiz olimlaridan A.Abduqodirov, M.Aripov, U.Begimqulov, F.Zakirovalar, pedagogik dasturiy ta'minotni yaratish va ulardan foydalanishning didaktik asoslari bo'yicha U.Yuldashev, S.G'ulomov, N.Taylaqov, M.Lutfillaev, A.Hayitovlar, M.Fayzieva, S.Tursunov, D.Mamatov, S.Dottoev kabilarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan O.Yarigin, M.Kondurar, N.Prusova, A.Alfimova, Y.Firsova, Y.Perminov, I.Jmurova, Y.Musinova, Y.Ananeva, G.Korneev, M.Kazakov, M.Ivanyuk, Y.Ismagilova, M.Keyv, Y.Musinova, S.Surikova va boshqalarning ilmiy ishlarida "Diskret tuzilmalar" kursi orqali intellektual kompetensiyani shakllantirishga yangicha yondashuvni amaliy tatbiq etish orqali axborot texnologiyalari mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish, kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun nazariy asoslash, uslubiy ta'minotni ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash masalalari yoritib berilgan.

Xorijlik olimlardan M. Durcheva, E.Varbanova, Shuai L, Fu W, Qiang L, Zhang X., Xiong Z., Yuan J., Yang M. kabilardan diskret tuzilmalarni o'qitishda innovatsion usullarni qo'llash va o'qitishning samarali modellarini yaratish, konsepsiyalar va dasturlar ishlab chiqish, Cécile Ouvrier-Buffer, Antoine Meyer, Simon Modeste tomonidan oliy ta'limda diskret matematika, arifmetika va kompyuter ilmlari (Computer Science) o'zaro aloqadorligi, Adam Blank va David Gries Kompyuter ilmlari (Computer Science) yo'nalishi talabalariga Diskret tuzilmalar kursini o'qitishda texnologik va pedagogik innovatsiyalar hamda "Diskret matematika" fanini o'qitishda yangicha yondashuvlar masalalari tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar diskret tuzilmalar kursini o'qitishda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariyasi va amaliyoti hamda o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari bo'lib, ularda kompyuter injiniringi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitish metodikasini innovatsion

texnologiyalar asosida takomillashtirish mavzusida maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHT-JP "Development of the Interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian Universities: CLASS" (Markaziy Osiyo universitetlarida sohalararo Kompyuter lingvistikasi magistratura dasturini rivojlantirish) – CLASS" (2017-2020 yy.) mavzusidagi Erasmus+ xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari kompyuter injiniringi yo'nalishida "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitishni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kompyuter injiniringi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda diskret tuzilmalar kursini o'qitish muammolarini aniqlash va pedagogik, psixologik jihatlarini tahlil qilish;

kompyuter injiniringi yo'nalishida "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitishning mobil texnologiyalarga asoslangan dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;

diskret tuzilmalar kursini o'qitishning metodik ta'minotini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish;

diskret tuzilmalar kursining innovatsion texnologiyalarga asoslangan metodik ta'minotidan foydalanib o'qitish samaradorligini aniqlovchi mezonlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti oliy ta'lim muassasalari kompyuter injiniringi yo'nalishida "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitish jarayoni bo'lib, TATU Samarqand filiali, TATU Farg'ona filiali, TATU Qarshi filialida 396 nafar talabalar jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari kompyuter injiniringi yo'nalishida "Diskret tuzilmalar" kursinini o'qitishning mazmuni, shakl, usul va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlar, DTS, o'quv reja va dasturlar, o'quv-me'yoriy hujjatlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil etish, sotsiometrik (test, elektron so'rovnoma, suhbat), pedagogik kuzatish, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kompyuter injiniringi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda diskret tuzilmalar kursining mazmun-mohiyati kursning mavzulararo uzviylikini ta'minlovchi qulaylik, qiziqarlilik, hamkorlikka asoslangan, interaktivlik xususiyatlari hamda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikabilik, jamomaviy ishlash kabi 4K kompetensiyalarning uyg'unlashuvi asosida takomillashtirilgan;

kompyuter injiniringi yo'nalishida "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitishning mobil texnologiyalarga asoslangan mualliflik dasturiy ta'minotning ma'ruza matnlari, amaliy dars topshiriqlari, savollar va javoblar, so'rovnoma, interpretatorlar, testlar, ko'ptilli interfeys va tavsiyaviy resurslar kabi tashkil etuvchilari didaktik, metodik, psixologik, texnik, estetik, maxsus, ergonomik talablari asosida sinflashtirilgan;

“Diskret tuzilmalar” kursini o‘qitishning metodik ta’minotining didaktik imkoniyatlari o‘quv jamoalarini tashkil etish, ijodiy yondoshuv, o‘yin sifatida o‘rganish, mulohaza yuritish, uzviy muloqot, o‘z-o‘zini baholash, kreativlikni oshirish kabi didaktik vazifalarni kiritish asosida kengaytirilgan;

kompyuter injiniringi yo‘nalishida “Diskret tuzilmalar” kursini o‘qitishning didaktik modeli rejalashtirish, yaratish, davomiy ishlash, o‘zaro bog‘liqlik, joylashtirish, joriy etish, davomiy qayta aloqa kabi pedagogik yondoshuv komponentlari hamda innovatsion texnologiyalarning onlayn va oflayn kollaboratsiyalarga sinflashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kompyuter injiniringi yo‘nalishida “Diskret tuzilmalar” kursini o‘qitishda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi “Diskret matematika va matematik mantiq fanidan amaliy mashg‘ulotlar” nomli o‘quv qo‘llanmasi yaratilgan;

“Diskret tuzilmalar” kursini o‘qitish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tavsiyalar hamda ta’lim jarayoni mazmuni va metodlarini takomillashtirish bo‘yicha discmath.uz mualliflik dasturiy va metodik ta’minot ishlab chiqilgan;

“Diskret tuzilmalar” kursini o‘qitishning Agile, 4K, MindMapping, Collaborative Learning innovatsion texnologiyalarga asoslangan dars ishlanmalari yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif qilingan diskret tuzilmalar kursining mazmuni takomillashtirilgani, ishchi fan dasturlarini tayyorlash, o‘quv jarayonida qo‘llanadigan amaliy faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirilgan dasturiy ta’minotning pedagogik, psixologik, texnik, maxsus, ergonomik, didaktik talablari, tarkibiy qismlari, yaratish bosqichlari, pedagogik loyihasi, talabalarning mustaqil faoliyat olib borishi, kasbiy faoliyati ijodiy yondashuvida hamda “Kompyuter injiniringi” ta’lim yo‘nalishida bakalavrlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirilgan diskret tuzilmalar kursining metodik ta’minoti, discmath.uz elektron axborot-ta’lim resursi hamda metodik qo‘llanmalardan foydalanib diskret tuzilmalar kursidan ma’ruza, amaliy, mustaqil ta’limni tashkil etish, “Kompyuter injiniringi” yo‘nalishi talabalarini diskret tuzilmalar kursi va axborot texnologiyalarini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi bilan birga o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kompyuter injiniringi yo‘nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda “Diskret tuzilmalar” kursini o‘qitish metodikasini

innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

kompyuter injiniringi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda diskret tuzilmalar kursining mazmun-mohiyatining kursning mavzulararo uzviylikini ta'minlovchi qulaylik, qiziqarlilik, hamkorlikka asoslangan hamda interaktivlik xususiyatlari hamda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikabilik, jamomaviy ishlash kabi 4K kompetensiyalarning uyg'unlashuvi asosida takomillashtirishga oid taklif va xulosalardan 2018-2020-yillarga mo'ljallangan PZ-20170929789 - sonli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy universitetining 2022-yil 22-dekabrda 04/11-8347-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning bilish faolligi va mantiqiy fikrlashini intensiv rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

kompyuter injiniringi yo'nalishida "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitishning mobil texnologiyalarga asoslangan mualliflik dasturiy ta'minotini ma'ruza matnlari, amaliy dars topshiriqlari, savollar va javoblar, so'rovnomalar, interpretatorlar, testlar, ko'ptilli interfeys va tavsiyaviy resurslar kabi tashkil etuvchilarining didaktik, metodik, psixologik, texnik, estetik, maxsus, ergonomik talablari asosida sinflashtirishga oid tavsiyalaridan 2018-2020-yillarga mo'ljallangan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan OT – Atex -2018-519 "Kompyuter imitatsion modellar asosida virtual resurslar Web - ilovasini dasturiy ta'minotini yaratish" amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 19-dekabrda 3641/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan imitatsion modellarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish usullari, texnologiyalari va metodik tavsiyalari ishlab chiqilgan;

"Diskret tuzilmalar" kursini o'qitishning metodik ta'minotining didaktik imkoniyatlari o'quv jamoalarini tashkil etish, ijodiy yondoshuv, o'yin sifatida o'rganish, mulohaza yuritish, uzviy muloqot, o'z-o'zini baholash, kreativlikni oshirish kabi didaktik vazifalarga doir taklif va tavsiyalari "Diskret matematika va matematik mantiq fanidan amaliy mashg'ulotlar" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Samarqand davlat universiteti kengashining 2019-yil 28-noyabrda 4-sonli qarori, 115-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, kompyuter injiniringi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda diskret tuzilmalar kursining mazmun-mohiyatini metodik o'qitishni mazmun, shakl va vositalari tashkil etadigan tashkiliy-tuzilmaviy komponentlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari amaliyotga yo'naltirib o'qitishda innovatsion texnologiyalarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya

etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 130 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kompyuter injiniringi yo'nalishidagi “Diskret tuzilmalar” kursini o'qitishning ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Kompyuter injiniringi yo'nalishida “Diskret tuzilmalar” kursini o'qitish pedagogik muammo sifatida qaralgan, ushbu kursni o'qitishning amaliyotdagi holatiga doir tahliliy ma'lumotlar keltirilgan, “Diskret tuzilmalar” kursini boshqa fanlar bilan integratsiyasi va mazmuni tahlil qilingan.

Hozirgi vaqtda mehnat bozorida ish beruvchilar bo'lajak kompyuter muhandislarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalariga e'tibor qaratishadi, balki shaxsning mustaqil fikrlash va turli masalalarni yecha olish ko'nikmasi; tanqidiy va ijodiy tafakkurni egallaganligi; zamonaviy texnologiyadan foydalangan holda muammolarni oqilona yechish yo'llarini izlab topish ko'nikmasi; mavjud bilimlarni qay tarzda qo'llash imkoniyatlarini aniq tasavvurlashi; yangi g'oyalarni generatsiyalash qobiliyatining mavjudligi kabi sifatlarining mavjudligini ham qadrlashadi. Shu bois, o'qitilayotgan har qanday fanning mazmuni bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyati bilan aloqador tarzda takomillashtirilishi talab etiladi, bu esa raqobatbardosh yuqori kompetensiyaga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Dissertatsiya ishida qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, Diskret tuzilmalar fanidan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va risolalar tahlil etildi. Tahlil etilgan ishlarda kompyuter injiniringi mutaxassislarni professional faoliyatga tayyorlash, ularda zaruriy kasbiy sifatlar va ko'nikmalarni shakllantirish masalalari hamda diskret tuzilmalar kursini mazmuni, tarkibi va uzviyligini ta'minlash (X.To'rayev, E.Urunbayev, O.Allamov, N.Kasimov, R.Dadajanov va boshqalar), Diskret matematikaning alohida mavzularini yoritish usuli bilan bog'liq savollar (V.Afanasev, I.Bavrin, L.Berezina, O.Melnikov, V.Maturov, V.Monaxov, K.Ribnikov, K.Xabibullin, S.Yablonskiy va boshqalar), axborot texnologiyalari mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, kasbiy kompetensiyasini shakllantirishni nazariy asoslash, uslubiy ta'minotni ishlab chiqish (O.Yargin, M.Kondurar, Y.Ananeva, G.Korneev, M.Kazakov, M.Ivanyuk, Y.Ismagilova, M.Keyv va

boshqalar), Diskret tuzilmalarni o'qitishda innovatsion usullarni qo'llashning nazariy asoslari (M.Durcheva, Shuai L, Fu W, Qiang L., X.Zhang va boshqalar) o'rganilgan bo'lishiga qaramay samarali o'qitish modelini ishlab chiqish bo'yicha hali ham izlanish olib borilmoqda.

Tahlillar natijasiga ko'ra, ularning aksariyatida o'qitish usullari va fanlararo integratsiyadan foydalanishga doir ma'lumotlar yoritilganligi hamda kasbga yo'naltirilgan masalalarni yechishga mo'ljallangan o'quv qo'llanmalarining mavjud emasligi aniqlandi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda Diskret tuzilmalar kursini innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish masalalarga doir izlanishlar olib borilmaganligini guvohi bo'lish mumkin. Bundan kelib chiqib, diskret tuzilmalar mashg'ulotlarida talabalarga ularning kasbiy faoliyatida foydaniladigan mantiqiy fikrlashib qarorlar qabul qilish va xulosalar chiqarish bo'yicha ma'lumotlardan foydalanishga, ikkilik mantiqiy elementlarning ishlash prinsiplari, mantiqiy sxemalarni analiz va sintez hamda minimallashtirishga doir masalalar yechishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi va ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlari olib borish zaruriyati paydo bo'ladi.

Kompyuter injiniringi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitish metodikasini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishga oid ilmiy-metodik adabiyotlar va o'qitishning mavjud holatiga ko'ra, ayni paytda quyidagi turkum muammolar borligi ma'lum bo'ldi: "Diskret tuzilmalar" kursni o'qitishda zamonaviy elektron ta'lim resurslarining yetarli darajada emasligi; "Diskret tuzilmalar" kursidan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish tizimiga oid ilmiy-uslubiy manbalarga ehtiyoj mavjudligi; "Diskret tuzilmalar" kursidan o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar banki yetishmasligi; talabalarning "Diskret tuzilmalar" kursidan kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda axborot-ta'lim muhitlaridan, onlayn ochiq kurslardan va nazorat qilish tizimlaridan foydalanish mexanizmi to'lig'icha ilmiy asoslanmagani; talabalarning "Diskret tuzilmalar" kursi mashg'ulotlarini tashkil etishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ishlanmalar yetarli darajada emasligi; "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitishda aralash ta'limdan foydalanishga mo'ljallangan uslubiy ishlarning yetarli emasligi; talabalarning "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitishda integrativ savol va nostandart topshiriqlardan foydalanish metodikasi to'lig'icha joriy etilmaganligi aniqlandi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya uzviyligi va uzluksizligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqot ishida diskret tuzilmalar kursining mazmun-mohiyati kursning mavzulararo uzviyligini ta'minlovchi psixologik xususiyatlar, matn va illustratsiyalar uyg'unligi, talabalarni faollikka undovchi materiallar, fanlararo bog'liqlik darajasi, mantiqiy tuzilishi, amaliyot bilan bog'lash kabi xususiyatlari aniqlandi. Fanlarni ajratish o'tmishda asosan fanlarning bir-biridan ajralib chiqishini ta'minlagan. Bundan tashqari, endilikda faqat turdosh fanlarda emas, balki bir-biriga aloqasi sezilmaydigan fanlarda ham integratsiya yuz bermoqda. Fanlarni integratsiyalashni chuqur metodologiya asosida o'tkazish zarur. Integratsiya jarayoni muayyan bilimlarning mazmuni, ijtimoiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Uzviylik jarayonini shartli ravishda uch turga ajratish mumkin:

1) fanlararo jarayonlar masalan, kompyuter arxitekturasi va kompyuterni tashkil etish, raqamli mantiqiy qurilmalarni loyihalash, sxemotexnika, kompyuter tarmoqlari va boshqa fanlararo aloqaning kuchayishi;

2) ilmlararo jarayonlar, xususan, fanlar metodikasi xulosasining didaktikada qo‘shiluvi;

3) fan mazmunidagi jarayonlar, ya’ni bir fan doirasida bajarilgan turli yo‘nalishdagi tadqiqotlar natijalarini umumlashtiruvchi umumiy nazariya.

Tadqiqot ishida, mazkur kursning mazmun-mohiyati kursning mavzulararo uzviyligini ta’minlovchi qulaylik, qiziqarlilik, hamkorlikka asoslangan, interaktivlik xususiyatlari hamda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot qilish, jamoaviy ishlash kabi 4K kompetensiyalarning uyg‘unlashuvi asosida takomillashtirildi.

Shuningdek, “Diskret tuzilmalar” kursining matematik va tabiiy ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlararo integratsiyasi aniqlanib ochib berildi. Xususan, Diskret tuzilmalar kursining “Kompyuterni tashkil etish”, “Ma’lumotlar tuzilmasi va algoritmlar”, “Raqamli qurilmalarni loyihalashga kirish” fanlari bilan mavzulararo bog‘liqligi tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Kompyuter injiniringi yo‘nalishidagi bakalavrlarga “Diskret tuzilmalar” kursini innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi”** bobida “Diskret tuzilmalar” kursini o‘qitish samaradorligini ta’minlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ya’ni kerakli texnik va metodik ta’minotlarni o‘z o‘rnida qo‘llash, ishlab chiqish, mavjud usul va vositalarni zamon talabiga mos ravishda takomillashtirish yoritildi. Shuningdek, “discmath.uz” dasturiy ta’minoti yordamida o‘qitish metodikasi ishlab chiqildi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim - tarbiya tizimini takomillashtirish uning milliy zaminini mustahkamlash ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon talablari darajasiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Ta’lim tizimidagi sifat o‘zgarishlari va yuqori samaradorlik, ularning jahon ta’lim talablari bilan mosligi va mutaxassislarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini qay darajada amaliyotga tadbqiq qilinayotganligiga bevosita bog‘liqdir. Ta’lim - tarbiyadagi sifat o‘zgarishlar va yuqori samaradorlik mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta’limda sifat va samaradorlik ta’minlanib, pedagogik innovatsiya jarayoni vujudga keladi.

Tadqiqot ishida bugungi kunda keng foydalanilayotgan o‘rganishni boshqarishning turli metodologiyalari va yondashuvlari: jamoaviy hamkorlik maqsadlari, strategiya va taktikani ishlab chiqish, fikr-mulohazalardan faol foydalanish, har bir ishtirokchi mas’uliyatni his qilishi hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni o‘rgatadigan xususiyatlariga ega bo‘lgan Agile; qulaylik, qiziqarlilik, hamkorlikka asoslanganlik va interaktivlik xususiyatlariga ega to‘ldirilgan borliq (Augmented Reality); yangi mavzuda asosiy tushuncha yoki g‘oyani mazmunini ochib berish uchun so‘zlar, g‘oyalar, vazifalar yoki boshqa xususiyatlarni tizimli tahlil qilib ochib berishga mo‘ljallangan idrok xaritalari (MindMapping); talabalarda 21-asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalaridan tanqidiy fikrlash (Critical Thinking), kreativlik (Creativity), muloqotga kirishuvchanlik (Communication), jamoaviy

ishlash (Coordinating With Others) kompetensiyalarini shakllantiruvchi 4K tamoyili; talabalar o'rtasidagi yoki talabalar va o'qituvchining muayyan maqsadga erishish uchun hamkorligiga asoslangan, elektron ta'lim va zamonaviy texnologiyalar va metodlarni birgalikda qo'llash orqali samaradorlikni oshirish xususiyatlariga ega Collaborative Learning texnologiyalari yoritilgan va ushbu texnologiyalarni "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitishda qo'llash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.


Kompyuter injiniringi yo'nalishida "Diskret tuzilmalar" kursini o'qitishning mobil texnologiyalarga asoslangan mualliflik dasturiy metodik ta'minotni yaratishning didaktik, metodik, psixologik, texnik, estetik, maxsus, ergonomik talablari aniqlandi. Ushbu talablar asosida ma'ruza matnlari, amaliy dars topshiriqlari, savollar va javoblar, so'rovnoma, interpretatorlar, testlar, ko'ptilli interfeys va tavsiyaviy resurslar tarkibidan iborat discmath.uz dasturiy ta'minoti yaratildi. Mazkur dasturiy ta'minotdan talabalar axborot-ta'lim resursi sifatida foydalanishlari mumkin.

Shuningdek, ilmiy-nazariy o'rganish va tahlillar natijasi shundan dalolat beradiki, kompyuter injiniringi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar asosida takomillashtirishni talab qiladi. Shu bois tadqiqot doirasida "Diskret tuzilmalar" kursi uchun innovatsion texnologiyalar asosida takomillashgan metodikaning o'quv jarayoniga joriy etish modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).


Mazkur model ta'lim-tarbiya jarayoni innovatsion yondashuvlari, usullari, shakllari va vositalarini o'z ichiga olgan bo'lib, bunda talabalarning "Diskret tuzilmalar" kursidan auditoriya va undan tashqari o'quv faoliyatida an'anaviy hamda masofaviy ta'lim olish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda intepretator dasturiy vositalaridan foydalanish va Collaborative Learning ta'lim texnologiyasidan foydalanish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmini o'z ichga olgan.

Collaborative Learning ta'lim texnologiyasi tarkibini oflayn va onlayn kollaboratsiyalarga ajratgan holda o'qitish texnologiyalari sinflashtirish orqali "Diskret tuzilmalar" kursi o'quv materiallari bazasi ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

Buning natijasi sifatida "Diskret tuzilmalar" kursi mazmuni kichik guruhlarda ishlash, kursdagi ko'plab mavzularni o'zlashtirish uchun talabalarga jamoaviy topshiriqlarni berishni taqozo etadi. Jumladan, "Diskret tuzilmalar" kursiga oid masalalarni yechish talabadan ko'p vaqt va mehnatni talab qiladi. Oflayn kollaboratsiyalarning jamoaviy ishlash va bilimlarni o'yin sifatida o'rganish tamoyillarini qo'llash orqali talabalarga yangi mavzularni o'zlashtirish oson va qiziqarli bo'ladi.



1-rasm. “Diskret tuzilmalar” kursi uchun innovatsion texnologiyalar asosida takomillashgan metodikaning o‘quv jarayoniga joriy etish modeli



2-rasm. Diskret tuzilmalar fanini o‘qitishda qo‘llanilgan Collaborative Learning tuzilmasi

Collaborative Learning texnologiyasi asosida “Diskret tuzilmalar” kursidan darslar tashkil etilganda talabaga aniq vazifa taklif etiladi, buning uchun u ma’lum bir mavzu bo‘yicha onlayn kollabratsiyalardan, ya’ni “Discmath.uz” dasturiy ta’minoti, virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar (LMS), ichki kontentni boshqaruvchi tizimlar (CMS), Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) dan material to‘plashi va global tarmoqning qidiruv tizimlaridan samarali foydalanishi kerak bo‘ladi. Collaborative Learning ta’lim texnologiyasi tizimli-faol yondashuvga asoslangan bo‘lib, mazkur texnologiya talabalarning “Diskret tuzilmalar” kursi darslarida axborot bilan mustaqil ishlashi orqali yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi.

Tadqiqot doirasida Agile-texnologiyasini o‘quv jarayonida tatbiq etishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. *Semestr o‘rniga Sprint.* Agile texnologiyasi asosiy komponentasi sifatida sprintlardan foydalaniladi. Sprint - bu scrum jamoasi tomonidan ma’lum miqdordagi vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan qisqa vaqt. An’anaviy ta’lim jarayonida vaqt birliklari sifatida semestrlarga ajratilganda talabalar o‘zlashtirish natijalarini yakunda bilishadi va kredit miqdorlarini yetarlicha to‘play olishmaydi. Buning yechimi sifatida tezkor sprintlarni joriy etilishi teskari aloqa davrini qisqartirilishiga shuningdek, talabalar bilimlarni o‘zlashtirishdagi muammolarni tezlikda aniqlash hamda tegishli choralarni ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi.

2. *O‘quv jamoalarini tashkil etish.* Agile jamoaviy ish va hamkorlikni anglatadi. Har bir talaba oldida bilimlarni o‘zlashtirish vazifasi turadi, guruhda o‘zaro yaxshi ta’sir qiluvchi kichik jamoalarga bo‘linish - hamjihatlikni o‘rnatishga yordam beradi. Har bir sprint oxirida jamoalar tarkibini o‘zgartirish mumkin. Shu tarzda, moslashish qobiliyatlari rivojlanadi, bu nafaqat jamoa darajasida, balki butun guruh darajasida jamoaviy ruhni saqlashga yordam beradi.

3. *Ijodiy yondashuv yoki o'yin sifatida o'rganish.* Agilening asosiy tamoyillaridan biri bu g'ayratli odamlar atrofida loyihalar qurishdir. Ta'lim jarayonida baholar an'anaviy motivator va muvaffaqiyat o'lchovi vazifasida ko'maklashadi. O'quv jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo jamoa va butun guruh o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradigan qo'shimcha imtiyozlar ham foydali hisoblanadi.

4. *Mulohaza yuritish va uzviy muloqot.* Agilening muhim prinsipi - bu ish samaradorligini oshirish uchun sodir bo'layotgan voqealarni doimiy baholashdir.

Talabalarni uchta darajada tahlil qilishga undash lozim: individual, jamoaviy va o'quv guruhi darajasi.

5. *O'z-o'zini baholash.* Ta'lim jarayonida o'z-o'zini baholay olish talaba kompetentligini oshirishning asosiy talablaridan biridir. O'z-o'zini baholash talabalarda o'zini tahlil qilishni, o'z ishidan qoniqish hosil qilishni, o'z-o'zini rag'batlantiruvchi hislarni uyg'otadi. Bu holat talabalarda uzluksiz ta'lim olish, izlanishlar qilish, yangi bilimlarni egallash, shaxs sifatida shakllanish imkonini beradi.

6. *O'qituvchining kreativligi oshishi.* Agile texnologiyasining eng muhim jihatlaridan biri o'qituvchining fani doirasida ushbu texnologiyaga mos keladigan masala va topshiriqlarni ajrata olishi, mavzular bo'yicha qisqa muddatda bajarish mumkin bo'lgan kichik guruhlariga moslashtirilgan loyihalarni ijodiy yondashgan holda ishlab chiqishi kerak bo'ladi. Bu esa o'qituvchiga yangi vazifalarni berish bilan bir qatorda uni izlanishga va talabalar bilan bahamjihat ishlashga undaydi.

Tadqiqotning **“Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va uning natijalari”** nomli uchinchi bobida ilmiy izlanish doirasida ilgari surilayotgan metodikaning samaradorlik darajasini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirilgan. Tajriba-sinov ishlariga 2019-2022 yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand, Farg'ona, Qarshi filiallarining talabalari hamda “Diskret tuzilmalar” fani professor-o'qituvchilari jalb etildi. Bunda 396 nafar talaba va 25 nafar professor-o'qituvchi ishtirok etdi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: asoslovchi, ta'limiy va aniqlashtiruvchi.

Kompyuter injiniringi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda “Diskret tuzilmalar” kursini o'qitish metodikasini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishining asoslovchi bosqichi 2019-2020 o'quv yilida olib borildi. Mazkur bosqichda tadqiqotning maqsadi, obyekti, predmeti va vazifalari belgilandi hamda mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar, axborot-ta'lim muhitlari tahlil etildi. Shuningdek, tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi hamda tajriba-sinov o'tkaziladigan oliy ta'lim muassasalari obyekt sifatida belgilandi. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand, Farg'ona, Qarshi filiallaridan Kompyuter injiniringi yo'nalishining 2-bosqich talabalari jalb etilib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Talabalarni tajriba va nazorat guruhiga ajratishda ularning bilimlari turli nazorat shakllari (og'zaki, yozma va test) yordamida aniqlashtirildi.

Ta'limiy bosqichi 2020-2021 o'quv yilida olib borildi. Ushbu bosqichda oliy ta'lim muassasalaridan tajriba-sinovga jalb etiladigan talabalar aniqlashtirildi va ularning o'quv natijalarini baholash mezonlari ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Kompyuter injiniringi yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorligini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari

Mezonlar	Ko'rsatkichlar tavsifi
Izlanuv- chan (kreativ) (Juda yuqori)	Diskret tuzilmalar fanidan o'tilgan mavzu mazmunini chuqur va to'la egallab olgani, innovatsion fikrlashi, fanning takomillashtirilgan mazmunida keltirilgan dasturlarni kasbiy faoliyatiga qo'llashi, o'quv materialidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'rganiladigan bilimlarni mazmun jihatidani ajrata bilganligi, o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga erkin, ijodiy fikrlab javob qila olgani, aytilgan ta'rif va tushunchalarni izohlay bilgani, shuningdek, javoblarni to'g'ri uslubda, ijodiy, ishonchli va bexato bo'lishi, o'rganilgan bilimlarga asosan to'g'ri qaror qabul qilish, kasbiy kompetentlikning yuqori darajada bo'lishi
